

OILA-TURMUSH SOHASIDAGI JINOYATLARNING TASNIFI: FALSAFIY TAHLIL

G'affarova Gulchehra

fals.f.d., prof.

Annotatsiya: Oilaviy jinoyatlar yoxud oila-maishiy munosabatlar sohasida sodir etilgan, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va erkinligiga daxl qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Ular ijtimoiy xavfning kuchayishi bilan ajralib turadi, chunki ular nafaqat alohida oila a'zolariga, balki ijtimoiy birlik sifatida butun oilaga ham zarar yetkazadi. Ushbu maqolada "oila-turmush sohasidagi jinoyatlar" tushunchasining mazmun-mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda tasnifi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, turmush, jinoyat, oila-turmush sohasi, jamiyat, inson, shaxs, oila a'zolari, xotin-qizlar, ijtimoiy hayot, huquqbuzarlik, yoshlar, oiladagi mojaro va zo'ravonlik, munosabat.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida «insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi» [1] mustahkamlab qo'yilgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning aksariyati maishiy turmush sohasidagi ijtimoiy munosabatlar natijasida sodir etilmoqda.

Shu bois, mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash, qadriyatlarimizni asrab avashlash, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilaviy-maishiy nizolarning profilaktikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, huquqbuzarliklar, jinoyatchilik, oiladagi mojaro va zo'ravonliklar, oilalar ajrashishi hamda ularning ijtimoiy oqibatlarini kompleks tadqiq etish [6], oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatish sabablarini, o'z joniga qasd qilish kayfiyatini qo'zg'atadigan omillarni aniqlash hamda o'rganish [5], shuningdek oiladagi nizoli

holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajrashishlarning oldini olish [7] tizimini takomillashtirish borasida meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Oila huquq nuqtai nazaridan jamiyatning ajralmas qismi va eng muhim institutlaridan biri sifatida qaraladi. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar tushunchasi turlicha bo'lib, fanda bu haqida turli soxa mutaxassislari tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud [11]. Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday huquqbuzarlik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'zini tutish kabi insoniy xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar” atamasi bir oila a'zolari tomonidan bir-biriga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Bular jismoniy va ruhiy zo'ravonlik, iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek, jinsiy zo'ravonlik va boshqa zo'ravonlik shakllarini o'z ichiga olishi mumkin. Oilaviy munosabatlar kontekstida "jinoyatlar" atamasi boshqa narsalar qatorida oila a'zolarining sog'lig'i va farovonligiga zarar etkazadigan qasddan sodir bo'lgan xatti-harakatlar sifatida tavsiflangan oiladagi zo'ravonlikni ham o'z ichiga olishi mumkin.

“Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar” tushunchasi haqida so'z borar ekan, ushbu ibora “oila” va “turmush” so'zlari birikmasidan tashkil topgan bo'lib, uning mazmuni bevosita oilaviy-maishiy sohadagi ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Izohli lug'atlarda ““oila” (bola-chaqa, xonadon, urug', avlod) so'zi oddiygina “er-xotin”, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui “xonadon”” [9] deb ta'riflanadi. Umuman olganda, oila-turmush munosabatlari jamiyat rivojlanib borgan sari, progressiv rivojlanish va o'zgarishlarning yuz berishi natijasida oila hayotiga “ommaviy madaniyat”, “zo'ravonlik” kabi salbiy illatlarning kirib kelishi yoki uning namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, oilaviy hayot shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq, oila-turmush munosabatlarida haligacha hal qilinmagan muammolar, jamiyatning izchil rivojlanishiga xalaqit beradigan, uning oldinga siljishini

sekinlashtiradigan salbiy hodisalar mavjud. Bunday muammolar qatoriga “oiladagi nosogʻlom munosabatlar (qiyin va pedagogik qarovsiz oilalar, ajralishlar sonining koʻpayishi, ichkilikbozlik), boʻsh vaqtdan unumli foydalanmaslik, uy-joyning yetishmasligi, kommunal xizmatlarni oʻz holiga tashlab qoʻyish, roʻzgʻordagi muammolarga eʼtibor bermaslik” [13] kiradi.

Oila-turmush sohasidagi jinoyatlarni tahliliga asoslangan holda taʼkidlash joizki, ushbu turdagi jinoyatlar nosogʻlom muhit, zoʻravonlik, tazyiq, oiladagi nosogʻlom munosabatlar natijasida sodir etiladi. Umuman olganda, oila-turmush munosabatlari jamiyat rivojlanib borgan sari, progressiv rivojlanish va oʻzgarishlarning yuz berishi natijasida oila hayotiga «ommaviy madaniyat», «zoʻravonlik» kabi salbiy illatlarning kirib kelishi yoki uning namoyon boʻlishini kuzatish mumkin.

Maʼlumki, oilada hayotda insonning eng yaqin boʻlgan (er-xotin, aka-uka, opa-singil va h.k.) kishilari yashaydi. Shunday boʻlsa-da, maishiy turmush sohasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxsning hayoti va sogʻligʻi uchun xavfli boʻlgan ogʻir va oʻta ogʻir turdagi jinoyatlarning sodir etilayotganligi ayanchlidir. Statistik maʼlumotlar oʻrganilganida, 2021-2024 yillar mobaynida maishiy turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlarning 34,5 foizini qasddan odam oʻldirish va unga suiqasd qilish, 37,2 foizini qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish, 18,3 foizini haqorat qilish, 4,5 foizini bezorilik jinoyatlari [2] tashkil etmoqda. Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, oila-turmush doirasidagi jinoyatlarda koʻpincha jismoniy va ruhiy zoʻrlik birgalikda sodir etilib, shaxsni kamsitish, tazyiq oʻtkazish, haqorat yoki tuhmat qilish orqali uning sogʻligʻiga nisbatan jismoniy shikast yetkazish bilan sodir etiladi.

Shuni aytish kerakki, oila-turmush doirasida sodir etilayotgan jinoyatlarga “oilaning ichida oilaning bir aʼzosi tomonidan ikkinchi aʼzosiga nisbatan qilinadigan jinoyatlar” [15] ham kiradi. Xususan, oila-turmush doirasidagi jinoyatlarda «shaxsning sogʻligʻi, hayoti va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish holatlari» [14] koʻproq kuzatiladi.

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar koʻpincha jismoniy kuch ishlatish orqali hayot

yoki sogʻliq uchun xavfli boʻlgan holda sodir etiladi. Jismoniy kuch ishlatish, kaltaklash, badanga nisbatan turli darajada shikast yetkazish holatlari orqali namoyon boʻladi. Jabrlanuvchiga jismoniy kuch ishlatish orqali zarar yetkazish, jabrlanuvchiga qasddan oila aʼzolari, yaqin doʻstlari va boshqa shaxslar tomonidan urish, kaltaklash, uning ozodligini cheklash, yashash joyida sogʻlom turmush tarzi va ovqatlanishidan mahrum qilish hamda ruhiy salomatligining buzulishi va qadr-qimmatiga zarar yetkazilishida namoyon boʻladi[18].

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni sodir etilishida jismoniy kuch ishlatishni quyidagi ikki guruhga boʻlish mumkin. Birinchisi, jismoniy kuch ishlatish bu – kaltaklash, badanga shikast yetkazish, zarba berish, nomusga tegish. Ikkinchisi, jismoniy kuch ishlatish bu – shaxsning sogʻligʻiga jiddiy zarar yetkazish va jismoniy azob berishdir.

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning sodir etilishida jismoniy kuch ishlatish bilan birga ruhiy taʼsir koʻrsatish holatlari ham ancha yuqori oʻrinni egallaydi. Shaxsning ruhiyatiga turli usullar bilan taʼsir koʻrsatish, ruhiy zoʻriqishni keltirib chiqarib shaxsning shaʼni, qadr-qimmati va erkinligini cheklashga qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etilishiga olib keladi [12].

Shaxsga ruhiy taʼsir koʻrsatish koʻpincha tahdid qilish, haqoratlash, kamsitish, zulm qilish shakllarida namoyon boʻlib, bu koʻp hollarda shaxsning ruhiyatiga, salomatligiga jiddiy taʼsir koʻrsatishda namoyon boʻladi.

Ruhiy va jismoniy zoʻrlilik bir-birini taqozo etuvchi hamda biri ikkinchisini toʻldirgandagina oqibat kelib chiqishi mumkin [16]. Bizning fikrimizcha, ruhiy taʼsir koʻrsatish jismoniy zoʻrlilik ishlatishdan koʻra shaxsning ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazib, ogʻir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim adabiyotlarda “ruhiy zoʻrlilik ishlatish deganda jabrlanuvchiga jismoniy zoʻrlilik ishlatish, uning mol-mulkini nobud qilish, jabrlanuvchi sir saqlamoqchi boʻlgan maʼlumotlarni oshkor etishi bilan tahdid qilish va boshqalarni tushunish lozim” [17].

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar deganda toʻgʻridan-toʻgʻri jismoniy yoki psixik taʼsir koʻrsatish va bunday taʼsir etish orqali tahdid qilishni tushunish lozim [8]. Bunday

jinoyatlarning motivi asosan rashk ekanligi va u birdaniga vujudga kelishi bilan xatarli bo'lishi mumkin. Ko'pincha, to'satdan paydo bo'lgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida shaxsning badaniga og'ir shikast yetkazish yoki odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan. To'satdan vujudga kelgan qasdning bir ko'rinishi sifatida affekt holatidagi qasdni o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatish mumkin [20].

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarda aybdor ko'pincha jabrlanuvchiga tahdid qilib uning sha'ni, or-nomusi va boshqa ma'lumotlarini oshkor qilishni aytib unga tahdid qiladi. Tahdid etish deganda, jabrlanuvchining qarshiligini yengish maqsadida uni jismoniy zo'rlik ishlatish niyati aniqligini ifodalovchi harakatlari yoki so'zlar bilan qo'rqitish tushunilishi lozim [3].

Biz olib borgan tadqiqotda, ruhiy tazyiq o'tkazish asosan quyidagi ko'rinishlarda sodir etilishi ma'lum bo'ldi: a) shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish; b) shaxsning ruxiyatga ta'sir etish; v) haqorat yoki tuhmat qilish; g) doimiy tanqid qilish, qo'rqitish; d) qarindosh urug'lar orasida sharmanda qilish va h.k.

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning sodir etilishida ko'pincha jismoniy va ruhiy ta'sir ko'rsatish birgalikda sodir etilib, shaxsni kamsitish, tazyiq o'tkazish, haqorat yoki tuhmat qilish orqali uning sog'lig'iga nisbatan jismoniy shikast yetkazish bilan sodir etiladi. Basharti, azob va uqubatlar uchun o'ch olish, jazolash birdan-bir maqsad bo'lib, maishiy turmush munosabatlarida jabrlanuvchi bilan aybdor o'rtasidagi munosabat salbiy bo'lgan bo'lsa, aybdorda o'ch olish niyatining paydo bo'lishi yoki jabrlanuvchining axloqqa zid xulq-atvori aybdorda kuchli ruhiy buzulishni vujudga keltirishi mumkin.

Oila-turmush doirasidagi ruhiy tazyiq yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilgan jinoyatlar birinchidan, ruhiy tazyiq har doim insonga qarshi qaratilgan bo'ladi, ikkinchidan ruhiy tazyiq insonga, uning ixtiyoriga zid ravishda sodir etiladi, uchinchidan ruhiy tazyiq o'zganing ruhiyatini ezish, qiynash orqali uning sog'lig'iga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsni ruhiy azoblash ham jismoniy azoblash singari inson organizmga kuchli ta'sir etishi mumkin. Chunki, bu azob insonning eng kerakli bo'lgan organizmi, ya'ni uning ruhiy holatini buzulishiga olib keladi [19]. Tahlillarga qaraganda, shaxsdagi ruhiy

zo'riqish holatlari ko'pincha insonning o'z joniga qasd qilishiga sabab bo'ladi. Tahlillarga ko'ra, har yili dunyoda 1 mlndan ortiq odam o'z joniga qasd qiladi yoki 10 mln.dan ortiq odam o'z joniga suiqasid qilishga harakat qiladi [21].

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning sodir etilishida ko'pincha shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga tahdid ko'rsatish holatlari yuzaga keladi. "Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda tahqirlash deganda, jabrlanuvchining sha'ni va g'ururini bir necha marta tahqirlashni (masalan, tuhmat qilish, haqoratlash, ta'qib etish va hokazolarni) tushunish kerak" [4].

Tahlillarga ko'ra, oila-turmush doirasida sodir etilgan qasddan odam o'ldirishning aksariyati shaxsga nisbatan ruhiy (psixologik) ta'sir ko'rsatish oqibatida kelib chiqmoqda. Bizningcha, oila-turmush doirasida ana shunday qilmishlar sodir etilishiga eng avvalo shaxsning ruhiyatiga qattiq ta'sir ko'rsatuvchi gap-so'z yoki muayyan harakatlar sabab bo'ladi.

Tadqiqot davomida ichki ishlar organlari xodimlaridan "Oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklar oqibatida qaysi turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda? deb so'ralganida, ularning 9,2% qasddan odam o'ldirish, 24,3% qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 21,7% qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 16,5% qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 10,4% haqorat qilish, 3,7% o'zini-o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, 4,0% bezorilik, 3,8% nomusga tegish, 3,1% qiynash, 3,0% sun'iy ravishda xomila (abort) tushurishga majburlash, 1,0% ayolni erga tegishga majburlash yoki to'sqinlik qilish jinoyatlari sodir etilayotganligini ma'lum qilishgan.

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar – bu ijtimoiy xavfli ko'rinishga ega jismoniy, ruhiy, jinsiy, ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bir oila a'zosining boshqasiga nisbatan majburlash xarakterlarini amalga oshirish, jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan va sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash tahdidi bilan, ma'lum hududda va ma'lum bir vaqtda sodir qilinadigan jinoyatlardir.

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar bu – muayyan shaxsning oilaviy (qarindoshlik) munosabatlarda bo'lgan shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni ijtimoiy xavfli

qilmish sodir etish orqali hal etishining natijasidir [10].

Oila-turmush doirasidagi nizolar oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- a) oila-turmush doirasida sodir etiladigan hayotga qarshi jinoyatlar;
- b) oila-turmush doirasida sodir etiladigan sog‘liqqa qarshi jinoyatlar;
- v) oila-turmush doirasida sodir etiladigan hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar;
- g) oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- d) oila-turmush doirasida yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;

ye) oila-turmush doirasida sodir etiladigan shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.

Xulosa qilib aytganda, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlarning tabiati, sodir etilish usullari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, o‘zining murakkabligi va chigalligi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan tubdan farq qiladi. Shu bois, oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni sodir etilishini erta aniqlash va ularni oldini olish borasidagi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь) / Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси // <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. Ўзбекистон Республикаси ИИБ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бош бошқармасининг 2021-2024 йиллардаги статистик маълумотномаси.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабиий усулда қондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 2010 йил 29 октябрь 13-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. –Т., 2018. –Б. 161.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 1998 йил 11

сентябрь 20-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. –Т., 2018. –Б. 89.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 июлдаги «Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизими такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3827-сон қарори // URL: <http://www.lex.uz>.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон Қарори // URL: <http://www.lex.uz>.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил февралдаги «Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5325-сон Фармони // URL: <http://www.lex.uz>.

8. Абдуллаева Д. Оила муҳофазаси барқарорлиги // Нуқуқ ва бurch, №7, 2008. –Б.51.

9. Алтмешов Т.Х., Позилжонов А.Қ., Оила-турмуш доирасидаги ҳуқуқбузарликларни олидини олишда пробация хизматини роли.// <file:///C:/Users/user/Downloads/CAJEI+1215.pdf>

10. Андреев В.Л. Интересы семьи и несовершеннолетних как объект уголовно-правовой охраны: автореф. дис. кан. юрид. наук. –Санкт-Петербург, 2011. – С.8.

11. Белов В.Ф. Преступления против семьи и несовершеннолетних в аспектах. – М.: РУСАКИ, 2002. С. 51-52.

12. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: автореф. дисс. кан. юрид. наук. –М., 2004. –С. 8

13. Ивасюк О.Н. Преступность в сфере семейно-бытовых отношений: социальные последствия и их минимизация. автореф. дис. юрид. наук. –М., 2007. –С. 4.

14. Костюк М. Насилие в местах лишения свободы (социально-правовой аспект) / Законность 1998. – № 2. –С.43.

15. Криминология. Учебник. – М., Россия, 1998. – С. 502.

16. Муродов А. Оиладаги зўравонлик тушунчаси, турлари ва жиноий ҳуқуқий тавсифи // Advakat журнали. –Т., 2018. № 1. –Б. 38-45.
17. Мусаев А.М. Ҳаётга қарши жиноятлар: назария ва амалиёт муаммолари. –Т., 2011. –Б.167.
18. Назаров А. Оила-турмуш муносабатларида зўравонликни олдини олиш муаммолари // Davlat va huquq. –Т., 2004, №4 (20) –Б. 44.
19. Сикорский А.И. Физиология нравственных страданий // Русская расовая теория. – М., 2004. –С. 496.
20. Якубов А.С. Учение о преступлении по законодательству Республики Узбекистан. –Т.: Академия. МВД Республики Узбекистан, 1995. – С. 75.
21. [http: // lossof soul. Com/DEATH/cuicide/statistic. Htm](http://lossof soul. Com/DEATH/cuicide/statistic. Htm);